Isakov Zakirjon Soliyevich (Qo‘qon davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi)

“ONA TILI” FANIDAN TALABALARGA MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL ETISHDA TABAQALASHTIRILGAN TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ona tili fanidan talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishda tabaqalashtirilgan topshiriqlardan foydalanishning dolzarbligi yoritilgan. Tadqiqotda tabaqalashtirish yondashuvi asosida tuzilgan topshiriqlar orqali talabalarning mustaqil ta’lim olishga bo‘lgan motivatsiyasi va til kompetensiyasi rivojlantirilishi ko‘rsatib berilgan. Maqolada kuzatuv, pedagogik eksperiment va suhbat metodlaridan foydalanildi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, tabaqalashtirilgan topshiriqlar talabalarning individual o‘ziga xosliklarini hisobga olib, ularning mustaqil o‘quv faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Muallifning amaliy tajribasiga asoslangan xulosalar va takliflar taqdim etilgan.*

Kalit so‘zlar: *ona tili, mustaqil ish, tabaqalashtirilgan topshiriq, talaba, bilim, ko‘nikma, malaka, kompetensiya, ijodiylik.*

Исаков Закиржон Солиевич (доцент Кокандского государственного университета, кандидат филологических наук)

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ДИФФЕРЕНЦИРОВАННЫХ ЗАДАНИЙ ПРИ ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНЫХ РАБОТ СТУДЕНТОВ ПО ПРЕДМЕТУ “РОДНОЙ ЯЗЫК”

Аннотация. *В данной статье освещается актуальность использования дифференцированных заданий при организации самостоятельной работы студентов по предмету «Родной язык». В исследовании показано, что задания, составленные на основе дифференцированного подхода, способствуют развитию мотивации студентов к самостоятельному обучению и формированию языковой компетенции. В статье использованы методы наблюдения, педагогического эксперимента и интервью. Результаты показывают, что дифференцированные задания положительно влияют на самостоятельную учебную деятельность студентов, учитывая их индивидуальные особенности. Представлены выводы и предложения, основанные на практическом опыте автора.*

Ключевые слова: *родной язык, самостоятельная работа, дифференцированное задание, студент, знание, навык, умение, компетенция, креативность.*

Isakov Zakirjon Soliyevich (Associate Professor at Kokand State University, Candidate of Philological Sciences)

THE USE OF DIFFERENTIATED TASKS IN ORGANIZING INDEPENDENT WORK OF STUDENTS IN THE SUBJECT “NATIVE LANGUAGE”

Annotation. *This article highlights the relevance of using differentiated tasks in organizing students' independent work in the subject “Mother Tongue”. The study demonstrates that tasks designed based on a differentiated approach enhance students’ motivation for independent learning and contribute to the development of their language competence. The article employs observation, pedagogical experiment, and interview methods. The results show that differentiated tasks positively influence students’ independent learning activities by taking their individual characteristics into account. Conclusions and recommendations based on the author's practical experience are presented.*

Keywords: *Native language, independent work, differentiated task, student, knowledge, skill, proficiency, competence, creativity.*

Kirish. Hozirgi kunda oliy ta’lim tizimida talabalarni faol, mustaqil fikrlovchi va raqobatbardosh kadrlar sifatida shakllantirish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, filologik yo‘nalishlarda o‘qitiladigan “Ona tili” fanida talabalarning mustaqil ishlash malakasini rivojlantirish pedagogik tajriba va ilmiy izlanishlarni talab etadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – mustaqil ishlarni tashkil etishda tabaqalashtirilgan topshiriqlardan samarali foydalanish imkoniyatlarini tahlil qilishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Tabaqalashtirilgan yondashuv, asosan, ta’lim oluvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olishga qaratilgan bo‘lib, u zamonaviy pedagogikaning muhim tamoyillaridan biri sifatida qaraladi. Bu yondashuvning nazariy asoslari psixologik-pedagogik tadqiqotlarda chuqur ishlab chiqilgan. Jumladan, V.V.Davidov va D.B.Elkoninlarning [1] faoliyatga asoslangan ta’lim nazariyasi, shuningdek, S.Y.Rubinshteynning [4] shaxs taraqqiyotiga oid g‘oyalari differensial yondashuvning ilmiy poydevorini tashkil etadi. Ularning tadqiqotlarida o‘quvchilar faoliyatini individuallashtirish va tabaqalashtirish orqali o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish masalalari keng yoritilgan. Xususan, V.V. Davidov ta’limning rivojlantiruvchi xususiyatini asoslab, bolalarning fikrlash faoliyatini yuqori darajada

shakllantirish uchun o‘quv topshiriqlarini turlicha darajalarda taklif qilish zarurligini ko‘rsatib bergan. D.B. Elkonin esa o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga moslashtirilgan differensial metodikalar orqali bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirish imkoniyatlarini tahlil qilgan.

O‘zbekiston ilmiy maktabida ham bu yo‘nalish jadal rivojlanib bormoqda. Jumladan, A.Jo‘rayev [2] tomonidan ta’limda muammoli yondashuv asosida mustaqil fikrlashni rivojlantirish masalalari yoritilgan. M.Egamberdiyev [3] esa o‘qituvchining individual yondashuv asosidagi faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha nazariy-amaliy tavsiyalarni ishlab chiqqan. Z.To‘xtayeva [5] esa talabalar bilan ishlashda mustaqil ta’limni tashkil etishning psixologik-pedagogik jihatlarini tadqiq qilgan. Tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, tabaqalashtirilgan topshiriqlardan foydalanish talabalarning shaxsiy qobiliyatlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini samarali tashkil etishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi, mazkur maqolada yoritilgan masala zamonaviy pedagogik ehtiyojlarga javob beruvchi dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda ona tili fanidan talabalarga mustaqil ishlarni tashkil etishda tabaqalashtirilgan topshiriqlarning samaradorligini o‘rganish maqsadida bir nechta metodlardan kompleks tarzda foydalanildi. Xususan, kuzatuv, suhbat, va eksperiment metodlari tadqiqotning asosiy tayanch uslublarini tashkil etdi.

Tajriba Qo‘qon davlat Pedagogika universitetining “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi 2-kurs talabalari ishtirokida amalga oshirildi. Eksperiment doirasida 100 nafar talaba tanlab olindi va ular o‘quv yutuqlari va til kompetensiyasidan kelib chiqqan holda, uch guruhga ajratildi: yuqori, o‘rta va past tayyorgarlik darajasidagi talabalar. Har bir guruhga tabaqalashtirilgan topshiriqlar asosida mustaqil ishlar taklif etildi; ushbu topshiriqlar talabalarning individual qobiliyatlari, o‘quv uslubi va tilni o‘zlashtirish sur’atlari inobatga olingan holda ishlab chiqildi.

Tadqiqot davomida o‘quv jarayonining turli bosqichlarida muntazam kuzatuvlar olib borildi, talabalarning faoliyatidagi o‘zgarishlar, motivatsiya darajasi va topshiriqlarni bajarish sifati qayd etildi. Shuningdek, talabalar bilan hamda ularning fan o‘qituvchilari bilan individual va guruhli suhbatlar tashkil etilib, mustaqil ishlarning mazmuni, talabalarning qiziqishlari va qiyinchiliklari aniqlashtirildi.

Eksperiment metod yordamida tabaqalashtirilgan topshiriqlarning ta’siri amaliy jihatdan sinovdan o‘tkazildi. Eksperimentoldi va keyingi bosqichlarda talabalar bilim darajasi maxsus tuzilgan testlar orqali baholandi.

Tahlil jarayonida sifatli (kvalitativ) va miqdoriy (kvantitativ) yondashuvlardan foydalanildi. Miqdoriy yondashuv doirasida statistik ma’lumotlar – test natijalari, ballar taqqoslovi, mustaqil ishlarni bajarish davomiyligi va muvaffaqiyat foizlari hisobga olindi. Sifatli yondashuv esa suhbat natijalari, kuzatuvlar protokoli va mustaqil ishlarning mazmuniy tahliliga asoslandi. Ushbu yondashuvlar orqali tabaqalashtirilgan topshiriqlar asosida tashkil etilgan mustaqil ishlarning samaradorligi, talabalarning faol ishtiroki va mustaqil fikrlash darajalaridagi o‘zgarishlar aniqlandi.

Tahlil va natijalar. Tajriba davomida tabaqalashtirilgan topshiriqlardan foydalanish orqali talabalar bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga qanday ta’sir ko‘rsatishi sinovdan o‘tkazildi. Dastlab, talabalar bilim darajasiga qarab uch guruhga – yuqori, o‘rta va past darajadagi guruhlarga ajratildi. Har bir guruh uchun moslashtirilgan topshiriqlar tuzildi va mustaqil ish jarayonida qo‘llandi.

O‘rta darajadagi talabalar bilimini mustahkamlash. Tajriba natijalariga ko‘ra, o‘rta darajadagi talabalar uchun mo‘ljallangan topshiriqlar ularning mavjud bilimlarini chuqurlashtirish va nazariy tushunchalarni amaliyotda qo‘llashga xizmat qildi. Bunday topshiriqlar aynan bu guruh uchun yetarlicha murakkablikka ega bo‘lib, ulardan faol fikrlash, tahlil qilish va xulosa chiqarishni talab qildi. Bu esa talabalarning nutqiy kompetensiyasini oshirish, yozma va og‘zaki fikr bayonini aniq va mantiqiy ifodalash malakasini shakllantirishda ijobiy natijalar berdi.

Yuqori darajadagi talabalar ijodkorligining faollashuvi. Yuqori darajadagi talabalar uchun mo‘ljallangan murakkab topshiriqlar, xususan, matn tahlili, stilistik vositalarni aniqlash, muqobil matn yaratish kabi faoliyatlar ijodiy yondashuvni talab etdi. Bu talabalar faqat bilim darajasini emas, balki analitik va ijodiy fikrlash salohiyatini ham namoyon qildilar. Ular topshiriqlarni mustaqil izlanish, qo‘shimcha manbalarni o‘rganish orqali ijodiy hal qilishga intildilar. Natijada ularning o‘z fikrini asosli ifodalash, mantiqiy dalillar keltirish va tahliliy yondashuv ko‘nikmalari rivojlandi.

Past darajadagi talabalar motivatsiyasining oshishi. Past darajadagi talabalar uchun esa soddalashtirilgan, ko‘proq vizual va amaliy yondashuvga asoslangan topshiriqlar taklif qilindi. Bu topshiriqlar ularda dastlabki ishtiyoq va ishonchni shakllantirdi. Oddiy va tushunarli mashqlar orqali ular mustaqil ishlashga odatlandi, til o‘rganishga nisbatan ijobiy munosabat paydo bo‘ldi. Ayniqsa, interaktiv elementlar (rasm aso-

sida matn tuzish, matn asosida hikoya yozish) ular uchun motivatsion omil bo‘lib xizmat qildi.

Xulosa va takliflar. Xulosa sifatida aytish mumkinki, tabaqalashtirilgan topshiriqlardan foydalanish mustaqil ishlar samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynadi. Har bir talabaga uning bilim va tayyorgarlik darajasiga mos topshiriq berilishi, o‘z navbatida, til kompetensiyasining har tomonlama rivojlanishiga zamin yaratdi. Bu yondashuv talabalarning o‘z kuchiga bo‘lgan ishonchini oshirdi, faol ishtirok va mustaqil fikrlashga undadi. Shuningdek, tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki, tabaqalashtirilgan topshiriqlarning didaktik imkoniyatlari talabalarning tilni o‘rganishdagi individual ehtiyojlarini hisobga olishga yordam beradi.

“Ona tili” fanida tabaqalashtirilgan topshiriqlardan foydalanish natijasida quyidagi ijobiy jihatlar kuzatildi:

– talabalar bilim darajasiga qarab individual yondashuv ta’minlanadi, bu esa ularning o‘zlashtirish salohiyatini oshiradi;

– mustaqil ta’lim ko‘nikmalari, ayniqsa, tanqidiy fikrlash, muammoni hal qilish, mantiqiy tahlil qilish kabi kompetensiyalar shakllanadi;

– har bir talabaning o‘z qobiliyati darajasida faollashuvi ta’minlanadi, bu esa umumiy o‘quv motivatsiyasining ortishiga olib keladi;

– o‘qituvchi va talaba o‘rtasida samarali muloqot va fikr almashinuvi kuchayadi, natijada o‘quv jarayoni shaxsga yo‘naltirilgan xususiyat kasb etadi.

Shuningdek, bu metodika ta’lim sifatini oshirishda muhim vosita sifatida xizmat qilishi mumkin. Kelgusida tabaqalashtirilgan topshiriqlardan foydalanish tajribasini quyidagi yo‘nalishlarda davom ettirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

▪Boshqa fanlarda ham tabaqalashtirilgan topshiriqlardan foydalanish orqali interfaol va individual yondashuvni kengaytirish.

▪Elektron platformalarda tabaqalashtirilgan topshiriqlarni avtomatlashtirish, ya’ni, ularni sun’iy intellekt asosida shakllantirish va monitoring qilish tizimlarini ishlab chiqish.

▪Metodik qo‘llanmalar yaratish orqali o‘qituvchilarni tabaqalashtirish metodikasiga tayyorlash va ularni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish.

▪Tajriba almashinuvi seminarlarini tashkil etish orqali oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida innovatsion yondashuvlarni tatbiq qilishni rag‘batlantirish.

Umuman olganda, tabaqalashtirilgan topshiriqlar o‘qitish jarayonini samarali tashkil etish, talabalarning individual o‘ziga xosliklarini inobatga olish va ularni ijodiy fikrlashga yo‘naltirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Давыдов В.В. Психология обучения школьника. Москва, “Просвещение”, 1996, 240 с.
(2). Jo‘rayev A. Mustaqil ta’limni tashkil etish. Toshkent, TDPU, 2019, 134-bet.
(3). Egamberdiyev M. Til o‘rgatishda interfaol metodlar. Samarqand, 2020, 102-bet.
(4). Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. Москва, “Педагогика”, 1989, 328-бет.
(5). To‘xtayeva Z. Filologik fanlarda tabaqalashtirish metodikasi. Toshkent, “Ilm Ziyo”, 2021, 87-bet.

Alimov Farhod (Andijon davlat universiteti dotsenti, ped. f.f.d. (PhD); alimovfarhod1976@gmail.com)

RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA TALABALARINING YOZMA NUTQ KOMPETENSIYASINI MODELLASHTIRISHNING METODIK TIZIMI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ta’lim jarayonining barcha sohalarida, jumladan, chet tillarini o‘rgatishda yangi va samarali modellashtirish yondashuvini topish zarurligini ko‘rsatib o‘tilgan. Olingan natijalarga ko‘ra, raqamli ta’lim tizimida nofilologik fakultet talabalarning xorijiy til kasbiy yozma nutq kompetensiyalarini shakllantirishning mazmuni va jarayonini modellashtirish, malakali mutaxassislar tayyorlash dolzarb muammolardan biri ekanligi qayd etildan.*

Kalit so‘zlar: *model, modernizatsiya, raqamli ta`lim, kompetensiyasi, kasbiy, yozma nutq, kommunikativ model.*

МЕТОДИЧЕСКАЯ СИСТЕМА МОДЕЛИРОВАНИЯ ПИСЬМЕННОЙ РЕЧЕВОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ

Аннотация. *В статье рассматривается необходимость поиска нового и эффективного подхода к моделированию во всех областях образовательного процесса, включая обучение иностранным языкам. По полученным результатам отмечается, что моделирование содержания и процесса формирования компетенций профессиональной письменной иноязычной речи студентов нефилоло-*